

# MUSIQA ILMI TARIXI KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARI TALQINIDA

Burxonova Gulrux Umurzakovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musika ta'limi” kafedrası  
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [gulruxburxonova@gmail.com](mailto:gulruxburxonova@gmail.com). Tel: +998947506494

**Annotatsiya:** Bastakor, ijrochi va qo'shiq matni bilan uzviy bog'liqlik xususida, Kaykovusning “Qobusnoma” asari va unda bildirilgan mulohazalar talqini yoritilgan. “Hofiz va musiqachilar haqida” bo'limida esa, musiqa ilmining bilimdonlari haqida so'z yuritiladi. Har bir san'atkorlikni o'z taqdiri deb bilgan inson albatta biror cholg'u asbobini cholishni bilmog'i lozim ekanligi alohida e'tirof etilgan. Musika bolalarning ichki dunyosini shakllanishida, estetik did va saviyasini o'stirishda muhim olim hisoblanishi yoritilib, ular asosida takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniy meros, milliy qadriyatlar, musiqa, qo'shiq san'ati, ustos-shogirdlik an'analari, “Shoxnoma”, “Qobusnoma”, sozanda, qo'shiq ijrochisi, musiqiy did, estetika.

## ИСТОРИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ НАУКИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАЙКОВУСА «КОБУСНОМА»

Бурхонова Гулрух Умурзаковна

независимый научный сотрудник кафедры музыкального образования  
Узбекско-Финского педагогического института

E-mail: [gulruxburxonova@gmail.com](mailto:gulruxburxonova@gmail.com). Tel: +998947506494

**Аннотация:** Интерпретация произведения Кайковуса «Кобуснома» и высказанные в нем мнения выделены с точки зрения целостной связи с

композитором, исполнителем и текстом. В разделе "О Хафизе и музыкантах" идет речь о ценителях музыкальной науки. Признано, что человек, считающий всякое искусство своим предназначением, должен уметь играть на музыкальном инструменте. Подчеркивается, что музыка считается важным фактором формирования внутреннего мира детей, развития эстетического вкуса и уровня, и на их основе формируются предложения.

**Ключевые слова:** культурное наследие, национальные ценности, музыка, певческое искусство, традиции мастерства, «Шохнома», «Кобуснома», музыкант, певец, музыкальный вкус, эстетика.

## HISTORY OF MUSICAL SCIENCE IN THE INTERPRETATION OF KAYKOVUS' WORK "KOBUSNOMA"

Burkhonova Gulrux Umurzakovna

She is an independent researcher at the Department of Music Education of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute.

*E-mail:* [gulruxburxonova@gmail.com](mailto:gulruxburxonova@gmail.com). *Tel:* +998947506494

**Abstract:** The interpretation of Kaykovus' work "Kobusnoma" and the opinions expressed in it are highlighted from the point of view of a holistic connection with the composer, performer and text. The section "About Hafiz and Musicians" talks about connoisseurs of musical science. It is recognized that a person who considers all art to be his destiny must be able to play a musical instrument. It is emphasized that music is considered an important factor in the formation of the inner world of children, the development of aesthetic taste and level, and proposals are formed on their basis.

**Key words:** cultural heritage, national values, music, singing art, traditions of excellence, "Shokhnoma", "Kobusnoma", musician, singer, musical taste, aesthetics.

Mamlakatimizda keyingi yillarda madaniy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xalqimiz qadimdan boy musiqiy merosga ega bo'lib kelgan yurt hisoblanadi. Bu bebaho meros, musiqiy qadriyatlar avlodlarimizning boy tajribasi mahsuli bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgani har bir davrning yoshlari uchun katta tarbiya maktabi hisoblangan. Eng muhimi, musiqa, qo'shiq san'ati bilan bog'liq ustoz-shogirdlik an'analari, ijrochilik va bastakorlik maktablarining vujudga kelishiga asos bo'lgan.

Musiqa va qo'shiq san'ati bilan bog'liq, mulohazalar, nazariy va amaliy mulohazalar ildizi uzoq tarixiy jarayonlarga borib taqaladi.

Ma'lumki, iste'dod insonni hamisha ezgulik va adabiy, mangulikka da'vat etuvchi ilohiy kuchdir. Iste'dod egalari tomonidan yaratilgan har qanday mo'jizaviy asarlar insoniyatni asrlar davomida hayratga solib kelgan. Ayniqsa, uch uyg'unlikni tashkil etgan bastakor, shoir, xonanda tomonidan yaratilgan bebaho asarlar insoniyat umrini go'zalikka oshno etib kelgan. Manbalarda qayd etilishicha, san'atning bu turlarini tanlagan iste'dod sohiblari, boshqa kasb egalaridan farqli o'laroq, mustahkam irodali, sabr-bardoshli, oldilariga qo'ygan maqsadlariga nisbatan qat'iyatli, ma'naviy olami boy, hayot go'zalligini chuqur his qiluvchi, inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi nozik tuyg'ular ijodkori sifatida qadrlanganlar. Bu haqda, eng qadimiy manbalardan biri, "Avesto"da zardo'shtiylar uchun muqaddas sanalgan olov atrofida aytilgan qo'shiqlar noyob ilk namunalar sanalgan.<sup>1</sup> Yoki, qahramonlikni e'zozlab kuylangan qo'shiqlar eng qadimiy xalq musiqa merosi sanaladi.[2] Bu mavzuga bag'ishlangan qadimiy qo'shiqlar matni va kuyga oid ma'lumotlar Firdavsiyning "Shohnoma" asarida bir necha marta tilga olingan<sup>2</sup>. [4]

Shuningdek, o'zbek xalq dostonlarida, doira jo'rligida ijro etilgan qo'shiqlar ham o'ziga xos tarixga egadir. Bundan ko'rinadiki, musiqiy qadriyatlar

---

<sup>1</sup> Umarov M. "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi" Darslik T., "Yangi asr avlodi" 2009

<sup>2</sup> Niholjonova N "A.Firdavsiyning "Shohnoma" dostonlari tavsifi", O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurali. 21-son 20.07.2023

xalqimizning turmush tarzi, turli ananalari, urf-odatlarini ifodolovchi ilmiy xazinadir.

Buyuk tabib, alloma Ibn Sino o'zining "Risolatun fi-ilmi musiqiy" (Musika ilmi haqida risola) asarida musiqaning hissiy ta'sir kuchiga yuqori baho berib, o'z tajribasida ruhiy kasalliklarni davolashda musiqiy ohanglarning ijobiy ta'sirini kuzatgan va amalda keng foydalangan.[5] Yoki, mutaffakir Farobiy o'zining "Musika haqida katta kitob" asarida san'atning nafosatli mohiyatini bayon etish barobarida, o'zi ham nay chalishni bilganligini va uning vositasida "Cho'li Iroq", "Ushshoq" kuylarini chalganligini aytib o'tadi. U musika san'ati haqida fikr bildirar ekan, eng avvalo musiqada mantiqiy mazmun, birlamchi ekanligini, shakl esa uning davomiyligini e'tirof etib o'tadi.[5] Musika ta'limi, uning inson ruhiyatiga ta'siri qolaversa, bu sohaga bo'lgan ehtiyoj borasida muhim ma'lumotlar XI asrda yaratilgan "Qobusnoma" da asarida ham bir muncha ma'lumot berilgan.

Ma'lumki, XI asrda ilm-fan, san'at va adabiyot ma'lum darajada taraqqiy etgan davr hisoblanadi. "Qobusnoma"ning muallifi Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashovchi Gilon qabilasidandir. U 412 hijriy (1021-1022 melodiy) yilda tug'ilgan bo'lib, asosan fors-tojik shoiridir. "Qobusnoma" asarini 1082-1083 yilda muallif yaratgan bo'lib, uni o'g'liga bag'ishlaydi. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, bulardan to'rt bobi diniy mavzularga bag'ishlangan. Qolgan 40 bobi hayotiy voqealarga sharqona ta'lim- tarbiya bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi.

Asarda asosan muallifning hayotiy tajribalari, pand-nasihat ruhidagi qarashlari qalamga olingan. Ayniqsa, muallifning turli masalalarni qamrab olish barobarida, shoirlik, hofiz va musiqachilar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Ayniqsa, qo'shiq uchun tanlangan she'r mualliflari shoirlar oldiga muhim talablarni qo'yar ekan, so'zning xalq uchun tushunarli bo'lishini, she'r faqat muallifga tegishli bo'lmay, balki she'rni o'qiydigan muxlisga ham aloqadoshligini, shu bois ular oldiga mos bo'lishni alohida ta'kidlaydi. Yana, qo'shiq uchun yozilgan g'azal oson, ravon va latif so'zlar bilan yozilishi lozim deb hisoblaydi.

“...” go‘zal yoqimli so‘zlaringni qo‘ldan bermagil “shunday yozsang, yuqori tabaqa hamda oddiy xalqqa yoqib tushadi va sening she‘ring shuhrat topadi”<sup>3</sup>,- deya alohida ta’kidlaydi.[3]

Asarning “Hofiz va musiqachilar haqida” bo‘limida esa, musiqa ilmining bilimdonlari haqida so‘z yuritar ekan, ular avvalo musiqa asboblariga tartib berganlarini, qo‘shiqlar orasida maqom yo‘lini og‘ir ekanligini, ularning tinglovchilari asosan keksalar va aqilli odamlarning tabiatiga mos ekanligini aytib o‘tadi. Muallif, yana bir o‘rinda, o‘ziga zamondosh bo‘lgan yoshlarning tabiatiga mos musiqiy kuy va qo‘shiqlar yozilganligini, hatto bolalar uchun ham maxsus taronalar ishlab chiqilganligini va ular yoqimli vaznda ijro etilganligini aytib o‘tadi. Asarda o‘zi she‘r yozib, o‘zi ijro etuvchi hofizlarga qarata ham aytilgan fikrlar mavjud. “Hofiz bo‘lsang, - deb yozadi muallif, - she‘r yozishni ham bilsang, o‘z she‘ringni aytishga xirs qo‘ymagil, chunki, sening she‘ring o‘zingga ma‘qul bo‘lsa ham, ehtimol boshqalarga ma‘qul bo‘lmas, negaki hofiz xalq she‘rining (yoki mashhur shoirlarning) paviysidur” – deydi.[3] Muallif, bu fikrlarini XI asrda yashagan bir olim nuqtai nazari bilan aytgan bo‘lsada, jiddiy o‘ylab qaralsa, bugungi kun shoir-qo‘shiqchilarga ham tegishli ekanligini bashorat qilgandek tuyuladi. Ayniqsa, yosh qo‘shiq ijrochilarining aksariyati, bir yo‘la uch vazifani ya‘ni, o‘zi shoir, o‘zi bastakor, o‘zi ijrochi bo‘lib kelayotganligi sir bo‘lmay qoladi.

Muallif, shoirlar va ular oldiga qo‘yilgan vazifalar haqida so‘z, yuritar ekan, avvalo o‘zlari yozgan she‘rlarini ommalashib, xalqqa yetishi uchun shoir ifodali, maroqli o‘qish mahoratiga ega bo‘lishini, moboda o‘qiy olmasa mahoratli voiz-suxandonlardan foydalanishni tavsiya etadi. “Qobusnoma” tilga olingan eng e‘tiborli jihatlaridan biri, qo‘shiq ijrochisiga qarata aytilgan pand – nasihatlar, o‘git-ibratlar bugungi ijrochi hofizlarga ham aloqadordir.

---

<sup>3</sup> Qobusnoma. T.O‘qituvchi 1973, 95-bet

Unda aytilishicha, “Kuylagan vaqtingda ashulang boshqa joydan, sozing boshqa joydan bo‘lmasin,” bunday g‘azal, qo‘shiq o‘zingga yoqsa ham, o‘zgalarga yoqmaydi. Har bir ashulani boshqa bir ma’no bilan aytgin”, - deya hofizga ma’sul vazifani yuklaydi. [3]

Shuningdek, qo‘shiq ijrochisi bo‘lgan hofizga qarata: kuylayotgan qo‘shiq matnining ma’nosini bilishini, o‘rni kelsa, tenglovchiga sharhlab berishni shuningdek, she’r va g‘azallardan ko‘plab yod olishni alohida ta’kidlaydi. Chunki, hofiz faqat qo‘shiq aytish bilan cheklanmay, balki go‘zal she’r va g‘azallarni yoddan o‘qib berishga to‘g‘ri kelishini o‘git tarzida aytib o‘tadi. Hozirgi kunlarda, bastakor qo‘shiqchi hofizlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular o‘z muxlislari oldida qo‘shiqlar ijro etar ekan, ularning aytayotgan ijrolarini qay darajada qabul qilinayotganligiga ko‘p ham e’tibor bermaydilar. “Qobusnoma”da bu masalada ham diqqatga sozovor fikrlar aytilgan. “Tengi yo‘q ustoz bo‘lsang ham, majlisdagi ulfatlarga qaragil, agar musiqadan zavqlanadigan donishmand odamlar bo‘lsa, ashulla ayt, yaxshi yo‘llarni, navolarni chertgil,” – deydi. [3]

Yuqoridagi fikrlardan, bevosita hofiz qo‘shiqlarning XI asrlarda ham o‘ziga xos madaniyati, san’atkorlarning el oldida qiladigan ijrolari bilan bog‘liq mas’uliyatidan darak beruvchi manba sifatida tilga olishimiz mumkin.

Muallif, qo‘shiq va musiqaning tinglovchi muxlislar tabiiyki, turli-tuman toifalarga mansubligini, ular o‘z imkoniyati darajasida qabul qilishlari haqida fikr yuritar ekan, ayrim masalalarga diqqat qilish lozimligini aytib o‘tadi. Birinchidan, ijroni qabul qiluvchilarning ma’naviy saviyasiga, salohiyatiga diqqat qilish lozim deb hisoblaydi. Ikkinchidan, ijrochi san’atkor aytilgan qo‘shiqning tinglovchiga qay darajada ta’sirini zukkolik bilan kuzatish, qobiliyatiga ega bo‘lishi lozimligini o‘qtiradi. Uchinchidan, hofizlik bebaho hunar egasi ekanligi bois, ularning asosiy vazifasi odamlarga quvonch, shodlik, zavq, yaxshi kayfiyat hadya etishdan iborat deya hisoblaydi.

Shunday ekan, bu hunar egalari, tabiiyki, asosan turli ziyofatlarda, maxsus yig‘ilishlarda xizmat qilishar ekan, eng avvalo o‘z izzat-hurmatlarining

---

qadrlashlarini, o'zlarini tuta bilishi madaniyatiga ega bo'lishlarini alohida o'qitib o'tadi.

Aks holda, el ko'zi oldida nojo'ya hatti-harakatlar ularning hunarlariga nisbatan hurmatsizlik keltirishi mumkinligini alohida eslatadi. Muallifning yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, san'atkorlarga bo'lgan munosabat, har bir davrda o'ziga xos hurmat va e'tibor nuqtai nazar bilan qaralgan. Tadbirlarda ular ko'rsatgan xizmatlari uchun mablag' va sovg'a-salomlar bilan taqdirlangan.

Tabiiyki, ayrim hollarda mast-alast bo'lgan kishilar ishtirok etgan, tadbirlarda ham xizmat qilishga vaziyat taqozo qilgan. Ana shunday holatlarda ularga xizmat ko'rsatayotgan san'atkorlardan xushyor bo'lishini, ularga qo'shilib mast-alast bo'lishi holatlari obro'ylarining to'kilishiga sabab bo'lishini, eng yomoni bu salbiy holat san'atkor, hofizlarning qadrsizlanishiga olib kelishini kuyinchaklik bilan tushuntiradi. Madaniyat va odob saqlash bilan bir qatorda: "Agar mastlar bir yo'la surud ayt desalar, senga malol kelmasin, har narsa buyursalar, shuni chertgil va shuni ko'ylagil, chunki sozandalarning eng ulug' hunari mastlarning ishiga sabr qilmoqlikdir. Agar sabr qilmasalar, kunbaylik in'omidan mahrum bo'ladilar. Yana deganlarki, hofiz ko'r, kar va soqov bo'lishlari lozim... u yerdagi ko'rgan va eshitgan narsalarini boshqa joyga borib aytmasligi kerak," - deya, hofizning oldida turgan ma'suliyatni eslatib o'tadi. [3]

"Qobusnoma"da tilga olingan musiqa, qo'shiq, ijrochi san'ati aslida kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi qudratli qurol ekanligini ko'rsatuvchi bir vositadir. Sirtidan qaraganda, bu vazifa oson, yengildek tuyulsada, chinakam san'atkor bo'lish uchun, tinmay mahoratni oshirish, o'z ustida ko'p ishlashni talab qiladigan sohadir.

"Qobusnoma" da tilga olingan fikrlar, takliflar va mulohazalarda juda katta ma'nolar yotadi. Ya'ni, haqiqiy san'atkor, kishilarga shodlik va ilhom, go'zal hissiy tuyg'ularni shakllantirish lozim. Chunki, bu tinmay ijod qilishi va bu intilishi orqali o'z mahorati va qobiliyati bilan tabiat bergan buyuk mukofotni el oldida namoyish qilmog'i lozim degan g'oyalar ham o'ziga xos tarixiy o'gitdir.

---

Eng muhimi Kaykovus, musiqa, qo'shiq ijrochilari faqat ko'ngil ochish uchun xizmat qilibgina qolmay, balki inson qalbiga go'zallik deb nomoyonlangan haroratni bera bilishi kerak.

Bu guzallikni yaratish uchun har bir san'atkor, shunchaki ijod qilmay balki butun ruhiy salohiyatini shu sohaga bag'ishlashi, shu sohani sevishi lozimligi haqidagi mulohazalar, bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida musiqa ijrochi va shoirlar haqidagi mulohazalari o'z davri nuqtai nazaridan bayon qilingan bo'lsada, muhim nazariy va amaliy qarashlari bugun ijod qilayotgan san'atkorlar uchun ham ibrat va namuna yana bir o'rinda aytilgan fikr bevosita musiqada ohangning ravon chiqishida, ijro uchun tanlangan qo'shiq matni, undagi unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzi muhim ahamiyatga egaligi haqida so'z beradi.

Xususan, musiqa ilmi bilan bog'liq mulohazalardan biri, har bir san'atkorlikni o'z taqdiri deb bilgan inson albatta biror cholg'u asbobini cholishni bilmog'i lozim ekanligini alohida e'tirof etgan. Bu fikr hozirgi kunda ham san'atkor bo'lishni tanlagan har talaba oldiga asosiy talab sifatida qo'shilmoqda. Bu haqdagi fikrni tasdiqlovchi qo'yidagi hujjatning e'lon qilinishi ham aynan shu masalaga bag'ishlagan. Bu qaror 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, endilikda maktablarda milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda o'quvchilarning ta'lim to'g'richidagi hujjatga tegishli qayd kiritildi. Shunga muvofiq keyingi o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soatidan tashqari, qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish bo'yicha amaliy to'garak va fakultativ dars tashkil etiladigan bo'ldi.[1]

Tabiiyki, bu mashg'ulotlar zahirida katta mantiqiy ma'no majassamdir – eng avvalo, yoshlar tafakkurida san'at asarlarini his qilish, idrok qilabilish,

---

tuygʻusini paydo qilsa, amaliy tajribalar jarayonida ichki hissiy tuygʻu vositasida qobiliyatni rivojlantirish vazifasini amalga oshiradi.

Shuningdek, musiqiy didni oshirish, bu orqali bolalar qalbiga taʼsir qiladigan qoʻshiq matni ham muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, musiqiy ohang va qoʻshiqdagi ruhiy holatni, goʻzallikni idrok va tasavvur qilish, undan zavq olish va yoqimli ichki kechinmalarni tuya bilish tuygʻusi insoniyat sanʼatning aynan ana shu turiga yaqinlashgan sayin chuqur his qiladi.

Ayniqsa, musiqa bolalarning ichki dunyosini shakllanishida, estetik did va saviyasini oʻstirishda muhim olim hisoblanadi. Sanʼatlar orasida alohida oʻrin tutuvchi musiqa har bir millat va elat uchun tushunarli. Chunki, unda inson yuragining qat-qatlariga, yetib boruvchi ohang hukmronlik qiladi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida shoir va musiqa, xonanda haqidagi bildirgan fikrlari maʼno va mazmun jihatidan bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu fikrlar tabiiyki, asrlar davomida shakllanib, odamlar ongida voqelikni idrok qilish orqali singib borgan natijada oʻz taʼsir kuchini namoyon etib borgan. Shu boisdan ham, asrlar davomida zavol topmay kelayotgan musiqa ilmi abadiylikka dahldor sanʼat turidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori. T.,2022

2. Umarov M. “Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi” Darslik T.,”Yangi asr avlodi” 2009

3. “Qobusnoma”. T., Oʻqituvchi 1973, 95-bet

4. Niholjonova N “A.Firdavsiyning “Shohnoma” dostonlari tavsifi”, Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurali. 21-son 20.07.2023

---

5. Matyakubov E “Sharq mutafakkirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari to’g’risida”, Innovative, educational, natural and social sciences Journal. Volume 1, 2021

---